



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MUSIQIY-ESTITIK TARBIYALASH  
IMKONIYATLARI VA ILMUY, NAZARIY ASOSLARI (IMKONIYATI CHEKLANGAN  
TARBIYALANUVCHILAR MISOLIDA)**

Sattorova Go'zal Shakur qizi

BUX.D.P.I Musiqa ta'limi va san'at 7-muz 22 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarning musiqa ta'limi faoliyatları, jumladan didaktik o'yinlar orqali musiqiy bilim berish va ularni qo'llash usullari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Axborot-kompyuter taxnologiya (AKT), prezentsiya, animasiya, musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqiy – didaktik o'yin.

**Abstract:** The article discusses the activities of music education of children with disabilities of preschool age, including methods of imparting musical knowledge through didactic games and their application.

**Key words:** Information-computer technology (ICT), presentation, animation, listening to music, singing, musical-didactic game.

### KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotida, ya'ni kichik yoshdagi bolalarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda musiqaning o`rni beqiyosdir. Prezidentimiz ham "Kuy, qo'shiqqa, san`atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholq'u asbobi bo'limgan, musiqaning hayotbaxsh ta`sirini o`z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak, mubolag'a bo`lmaydi" - deya musiqiy madaniyatning tarbiyaviy kuchiga yuksak baho beradilar.

Ajdodlarimiz ham musiqiy tarbiyaning tarbiyaviy kuchiga alohida e'tibor bilan qarashgan. MTT yoshdagi bolalarga berilayotgan musiqiy ta'limning sifati, samaradorligi butkul musiqa rahbari zimmasida bo`lib, uning o`z kasbini sevishiga, pedagogik mahoratiga, izlanuvchanligiga, fidoiyligiga, o`z mas'uliyatini qay darajada his etishiga bog`liq. Bu sharaflı vazifani bajarishda unga tashkilot tarbiyachilari ham yaqindan ko'makdosh sanaladi.

Har bir musiqa rahbari musiqiy tarbiya berishda tarbiyalanuvchilarni egallashlari lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar mezonlari talablarini yaxshi bilishi hamda mashg`ulotlar shu mezonlar asosida va darajasida bo'lishini ta'minlashi kerak. Shunday ekan kichkintoylarning har tomonlama rivojlantirishda musiqa mashg`ulotining munosib o'rni borligini hisobga olgan holda dasturlarni shunga mos ravishda tayyorlashi lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi" asosida ish yuritib kelinmoqda. Bu borada Respublikamizda amalga oshirilayotgan bir qator ishlar alohida



tahsinga sazovordir. Xususan, 2020 yil 13-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4360-son "Alohidat a'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lism-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirdari to'g'risida"gi Qarori respublika bo'yicha rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'lism-tarbiya olishi uchun bir qator afzalliklar yaratib berishga xizmat qilmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODOLOGIYA**

Inklyuziv ta'lism joriy qilingan maktablarda imkoniyatlari cheklangan bolalarning individual ehtiyojlari hisobga olingan holda o'quv jarayoni barcha uchun birdek yo'lga qo'yilishi natijasida imkoniyati cheklangan bolalar o'z qobiliyat va iqtidorlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek, imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra imkoniyati cheklangan bo'lgan) bolalar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lism tizimini yo'lga qo'yish va ularga yordam berish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdir. Inklyuziv ta'lismni qo'llab-quvvatlagan holda O'zbekiston hukumati ta'lism barcha va har kim uchun ekanligi to'g'risidagi xalqaro huquqning tarafdori ekanligini isbotlamoqda.

Imkoniyati cheklangan bolalarning individual ta'lism ehtiyojlarini qondirish zaruriyati va har bir bolaning yuzaga chiqishini ta'minlanishi imkoniyatlarini namoyon etish – jamiyat hayotidagi ishtiroki maqsadini amalga oshirishning muhim tamoyili hisoblanadi. Ushbu metodologiya inklyuziv ta'limga maktabgacha ta'lism muassasalarining tarbiyachilarini, shuningdek, unga mos keluvchi ta'lism dargohining talabalarini o'qitish hamda o'qituvchilar, tarbiyachilar, maktab xodimlarini malakasini oshirish uchun ishlab chiqilgan.

Metodologiya maxsus ta'lism ehtiyojiga muhtoj bolalarga BMTning imkoniyati cheklangan kishilarning huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, BMTning bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyalarining to'la ta'lism hamda bolalarni ijtimoiy himoya qilish milliy siyosatimizga muvofiq, shuningdek, "Ta'lism barcha uchun" Milliy dasturi doirasi asosida o'qitish va ta'lism berilishiga asos bo'ladi.

Metodologiyada inklyuziv ta'lismni ta'lism tizimiga, asosan, boshlang'ich va maktabgacha ta'lism muassasalariga kiritish yo'lining muhim jihatlari hamda tamoyillari berilgan. Metodologiya uslubiy o'qitish Paketining birinchi qismi hisoblanadi.

Paket quyidagi qismlardan iborat:

- Maktabgacha ta'lism muassasalari va boshlang'ich ta'linda inklyuziv ta'lism metodologiyasi I uslubiy qo'llanma
- Inklyuziv bolalar bog'chalari va bolalar yoshi 2-7 yosh bo'lgan boshqa maktabgacha ta'lism muassasalari uchun; II uslubiy qo'llanma
- Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun (7-10 yoshli bolalarga).

Uslubiy ta'lism berish paketining maqsadi, o'qituvchilar, ta'lism muassasalarida o'quvchilarni tayyorlash yoki malakasini oshirish, shuningdek, inklyuziv boshlang'ich sinf hamda maktabgacha ta'lism muassasalarida faoliyat olib boruvchilarning har bir bolaning o'ziga xos jihatlarini hisobga olishlari, ayniqsa, maxsus ta'limga ehtiyojmand bolalarga sifatli ta'lism berishlari uchun yordam ko'rsatishdir.



Paketda bolalarni qiziqtirish, diqqatini jamlash va o'qishlaridagi muvafaqqiyatlarini qanday baholashga doir tavsiyanomalar bor. Ikki uslubiy qo'llanma metodika va aniq misollar, qisqa hikoyalar hamda amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Metodika o'qituvchilarga o'quvchilarining kuchli jihatlari va maxsus ehtiyojlari bilan ishlashga yordam beradi. O'qituvchi va yordamchi xodim inklyuziv sinflarda ushbu materiallardan foydalanishlari mumkin bo'lgan holda har bir bolaning, maxsus ta'limga ehtiyojmand turli toifadagi – imkoniyati cheklangan bolalar, mayda etnik qatlamning farzandlari, qochoqlar, ruhiy-hissiy buzilishlarga ega bolalar, avval ilk va boshlang'ich ta'lim olmagan bolalar bilan ishlash jarayonida foydalanib, ta'lim sifatini yaxshilashlari mumkin. Metodologiya milliy va yevropa ekspertlari tomonidan milliy qonunchilikni tavsifi va tahlili hamda amaliyotda qo'llanilishi; inklyuziv ta'lim sohasida milliy, yevropa va xalqaro eng yaxshi tajribalarni qo'llashni davomli muhokamalar qilish orqali ishlab chiqilgan. Paket asosiy hamkorlar (RBIMM va XTV) hamda boshqa muvofiq keluvchi tomonlar tarafidan muhokama qilingan va tasdiqlangan, komponentga ko'ra maxsus mакtab va resurs markazlarida boshqarilgan, shuningdek, o'qituvchilarga mo'ljallangan.

### MUHOKAMA

Har bir mutaxasis bolaga musiqaning qaysi yo'nalishini o'rganishidan qat'iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini nazarda tutishi lozim. Unda uzlucksiz davom etadigan bir butun ta'lim-tarbiya jarayonining belgilovchi ilk turi "maktabgacha ta'lim" deb ataladi. Birgina shu yondashuvning o'ziyoq tarbiyaga mehribonlik vaadolat bilan qarashni talab etadi. Negaki, bugungi yosh avlodlarni XXI asrda kuchga to'lib, sog'lom, bilimli, aqlli bo'lib jamiyatimizning faol a'zolariga aylantirishdek ulkan vazifa musiqa rahbari va tarbiyachi zimmasida turibdi. San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarini tarbiyalash borasida g'amxurlik qilar ekanmiz, san'at bilan muomala qilishdan hosil bo'ladigan his-hayajondan uni o'z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o'rgatishimiz kerak. Bolalarda kichik yoshlik chog'idan musiqani idrok etish, his etish, turmush va san'atdag'i go'zallikni ko'ra olish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go'zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi.

Musiqiyy-estetik tarbiya demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Ma'lumki, bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatlarga jalb etish, musiqaga nisbatan estetik idrok etishni va emotsiyonal o'zlashtirishni rivojlantirish, muhabbatni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, musiqiy didni shakllantirish, bolalarning badiiy ijodkorligi hamda iqtidorini rivojlantirish kerak. Musiqa — san'atning bir turi. U san'atning yana boshqa turlari bilan musiqa chambarchas bog'liqdir. Masalan: musiqa mashg'ulotlarini vokal, raqs, she'riyat (adabiyot), badiiy san'at, tasviriy san'at, va boshqalar bilan bog'langan xolda olib borish nazarda tutilgan.

Bolalar ijrochiligi — tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijroga o'rgatish va boshqa faoliyatları hozirgi kunda o'zining dolzarbligi bilan ko'pgina pedagog-olimlarning diqqat markazidadir. Shuning uchun biz kelajak avlodni musiqiy bilimga ega bo'lishlariga zamin yaratar ekanmiz, ularning musiqiy-estetik



tarbiyalariga alohida e'tiborimizni qaratmog'imiz zarur. Buning uchun «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlab o'tilganidek, nafaqat bola shaxsi, balki musiqa rahbari shaxsini, uning ma'naviy-madaniy qiyofasini shakllantirishimiz, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy-musiqiyaning an'analarimizga amal qilgan holda bo'lajak musiqa rahbarlarmizni yosh avlodni tarbiyalashga loyiq hamda munosib inson qilib shakllantirishimiz kerak. Albatta, boshlang'ich sinflarda ham musiqa fani kichik yoshdagidan bolalar uchun eng qiziqarli fanlardan biri sanaladi.

“Musiqa madaniyati” o'quv fanida ham kichik yoshdagidan bolalarni estetik tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilib tayanch dastur ishlab chiqildi. Ushbu dasturda umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqliy ta'lim-tarbiyaga qo'yiladigan maxsus talablar ham dasturning asosiy qismlari qatoridan o'rinni olgan. Unga ko'ra bolalarni musiqliy-estetik tarbiya uchun quyidagilarga rioya qilish kerak:

- Musiqliy faoliyatlarni atrof muhit hamda zamon bilan hamohangligi;
- Musiqlarning san'at sifatida o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- Bolalarning musiqliy rivojlanishlarida uzviylikni ta'minlash;
- Bolalarning qobiliyat va imkoniyatlaridan qat'i nazar ularning musiqliy tarbiyalariga qo'yiladigan majburiyatlar.
- Bolalarni quvnoq, g'amgin, yengil va vazmin musicani tinglashga past va yuqori registrni eshita olishga, musiqa tilini tushunishga, past ovozli va baland ovozli musicaga mos chapak chalish orqali musiqa dinamikasini ajratishni o'rgatish;
- Kattalar ketidan musicani taqlid qilib, intonatsion mos ravishda qaytara olish; - Musiqa rahbari boshchiligida raqs harakatlarini bajarish; - Kompozitorlar, musiqliy cholgu asboblari haqida tushinchcha berish;
- Bolalarni musicani diqqat bilan tinglashga o'rgatish, yengil va oson xalq qo'shiq hamda kuylarini musicasiga mos ritmik harakatlar bajarib ijro etishga o'rgatish.

### NATIJA

Musiqa rahbari quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

1. Musiqa muhabbat va qiziqishni o'stirish.
2. Bolalarning musiqliy tajribasini boyitish (musiqliy asarlar asosida).
3. Bolalarni oddiy musiqliy tushunchalar bilan tanishtirish, musiqa tinglash, kuylash, musiqliy ritmikasi borasida malakalarni rivojlantirish.
4. Bolalarda emotSIONAL hisni shakllantirish. Ularda lad hissi, ritm tuyg'usini o'stirish va harakatni o'tirish.
5. Musiqliy didni o'stirish (musiqliy taassurotlar asosida). 6. Bolalarda ijodkorlikni o'stirish (barcha faoliyatlar asosida).

### XULOSA

Musiqa rahbari o'z dasturiga o'zbek bastakorlarning bolalar uchun yozilgan kuy va qo'shiqlaridan kiritishi lozim. Musiqliy asarlar bolalarning psixologik xususiyatlarini, ularning qiziqishlari va dunyoqarashlarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Frensis Galton o'zining “Talantning tug'maligi, uning Qonuniyatları va oqibatlari” (1869) nomli kitobida “... buyuklik va iste'dod avloddan avlodga o'tadi, muhit esa bunda ikkinchi darajali



omildir...”, - deb aytgan. Biroq ko’pgina mashxur ijrochilar buyuklikning sababi to’qson foiz mehnatdandir va qolgan foizlarigina qobiliyatga bog’liqligini ta’kidlashgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. G.Sharipova.G`Najmekdinov Musiqa o`qitish metodikasi praktikumi
2. Apraksina.O.A.Maktablarda musiqiy tarbiya metodikasi
3. D.Soipova Musiqadan o'qitish nazariyasi va metodikasi
4. M.S. Muxiddinova “Мактабгача таълим ташкилотларида ахборот-компьютер технологияларини мусиқа тарбияси воситаси сифатида қўллашнинг хусусиятлари” 2020 yil
5. Sh.R.Mahkamova “Имконияти чекланган болалар ва хар томонлама етук авлодни тарбиялашда мусиқанинг ўрни” 2020
- 6.M.A.Asadullaeva “Ёшлиарни маънавий тарбиялашда қўшиқчилик санъатининг тутган ўрни” 2020 yil